https://buxdu.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

IS’HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

# Til va adabiyot, chet tillarni o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari

xalqaro talabalar anjumani maqolalar to`plami

Namangan - 2023

https://buxdu.uz




| | | |
|---|---|---|
| 13 | Ingliz tilini o’qitishda noverbal vositalardan foydalanish usullari<br>O. R. Omonboyeva, N.Abdullayeva | 44 |
| 14 | Talabalarga ingliz tilida sohaviy matnlarni o’qishni o’rgatish usullari (tarix yo’nalishi misolida)<br>T. Odiljonova | 47 |
| 15 | Chet til darslarida yuqori sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirish usullari<br>D.Shermahammatova | 51 |
| 16 | Талабаларнинг инглиз тилида ёзма нутқ малакаларини ривожлантириш усуллари (нофилологик йўналишлар мисолида)<br>Ф. И. Каримова | 53 |
| 17 | Katta yoshdagilarga chet tilini o‘rgatishning samarali usullari.<br>M.D. Raximova, Sh.Ne’matjonov | 56 |
| 18 | Ways of improving writing skills english language teaching<br>X. Otaqulova | 59 |
| 19 | Zamonaviy nemis tilini o‘qitishda predloglarni o’rgatish metodikasi<br>D.Z. Hayotova, S.A. Vafoyeva | 62 |
| 20 | Бошланғич синфларда инглиз тили талаффузини ўргатиш хусусиятлари<br>А.Абдупаттаев, С.А.Мисиров | 68 |
| 21 | Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o’rgatish usullari<br>X. Xolmirzayeva, U. Soliyev | 70 |
| CHET TILLARNI O‘QITISHGA BO‘LGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR | | |
| 22 | Инглиз тили ўқитишга қўйиладиган замонавий талаблар таҳлили (коммуникатив ёндашув мисолида)<br>А.Абдупаттаев, С.А.Мисиров | 72 |
| 23 | Methods of using modern pedagogical technologies in the development of communicative competence of students of the tourism direction<br>K. Yuldasheva | 74 |
| 24 | Инглиз тили таълимида ўқувчилар тил тажрибасини ҳисобга олиш тамойилининг методик тавсифи<br>А.Абдупаттаев, С.Мисиров | 82 |
| 25 | Chet tillarni o’qitishda masofaviy ta’limning ahamiyati<br>Sh. Kozimova, U.Soliyev | 84 |
| 26 | Chet til o’qitishga bo’lgan zamonaviy yondashuvlar (clil yondashuvi misolida)<br>X. X. Xabibullayev | 88 |

https://buxdu.uz



8. Business Writing Seminars, www.linguarama.com/brochure/pdfbrochures
9. The National Commission on Writing, press release,
2003, from http://www.writingcommission.org/pr/writing_for_employ.html, last visited 9 April2010.
10. www.flo-joe.co.uk/cae/students/writing, last visited 15 April 2010.
11. Saxton, Brian, The Importance of Writing, AptosJunior High School, 2007.
12. Birsen Tan Tütünis, Content Based Academic Writing, tutunis @superonline.com, last visited 21 March 2010.
Writing Skills Necessary for Employment, Says Big Business, http://www.writingcommission.org/pr/writing_for_employ.html., last visited 16 April 2010. White, R. and Arndt, V., Process Writing, Longman UK, 1991.

## ZAMONAVIY NEMIS TILINI O'QITISHDA PREDLOGLARNI O'RGATISH METODIKASI

**D.Z. Hayotova, S.A. Vafoyeva, Buxoro Davlat Universiteti**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada interfaol metodlar ularning ahamiyati hamda predloglarning ushbu metodlar orqali o'qitish haqida fikr yuritiladi.

**Inhaltsangabe:** Dieser Artikel beschreibt die Bedeutung interaktiver Methoden und das Lehren Präpositionen durch diese Methoden.

**Аннотация:** В этой статье обсуждается важность интерактивных методов и обучения предлогов с помощью этих методов.

**Tayanch so'zlar:** Interaktiv,aktiv,passiv, QR-kod, kompetensiya, kommunikativ,metod

**Ключевые слова:** Интерактивный, активный, пассивный, QR-код, компетентность, коммуникативный, метод

**Schlüsselwörter:** Interaktiv, aktiv, passiv, QR-Code, Kompetenz, Kommunikation, Methode.

Ta'lim bosqichlarida barcha fanlarni o'qitishda AKT vositalarini qo'llashning dasturiy manbalarini yaratish yuzasidan respublika prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari chiqdi. Mazkur me'yoriy hujjatlar dasturulamal sifatida ta'limning barcha bo'g'inlarida katta o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi va bugungi kunda o'zining samarali natijalarini bermoqda. Ma'lumki, axborot manbalaridan foydalanish nafaqat AKT vositalarini bilishni, balki chet tillarini ham puxta egallashni taqazo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-sonli qarorning e'lon qilinishi respublikamizda chet tillarni uzluksiz o'qitishni tashkil qilish, ta'lim bosqichlari uchun belgilangan davlat ta'lim standartlarini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirish va xorijiy tillarni o'qitish tizimini tubdan yaxshilash vazifalarini qo'ydi. Buni amalga oshirish ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik uslublarni tatbiq etish, xorijiy tillarni o'qitishda turli xil ped texnalogiyalar yordamida, interaktiv metodlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishni ham taqozo

https://buxdu.uz



etadi. Ma'lumki, xorijiy til ta'limida talabalarning nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda tinglab tushunish va so'zlash malakalari yetakchi o'rinda turadi.Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida ham chet tillarni o'rganish bo'yicha Davlat ta'lim standartlari loyihasini ishlab chiqish jarayonida "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari talablari asoslanildi hamda dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ijobiy tajribalari va "Xorijiy tillarni bilish bo'yicha umumyevropa kompetensiyalari"tizimi chuqur o'rganib chiqildi. Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'rgatish bo'yicha ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarining ahamiyati shundaki, unda o'quvchi-yoshlarni chet tillarda erkin muloqot qila olish ko'nikmasini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri etib belgilangan bo'lib, bir nechta yo'nalishlarni qamrab olgan. Eng muhim jihati Davlat ta'lim standartining loyihasi chet tilini o'rganishda kommunikativ faoliyat va shaxsga yo'naltirilgan, integrativ va kompetensiyali yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan.

**Predloglarning paydo bo'lish tarixi.**Predloglarning etimologig tarixi lotin tilidan paydo bo'lgan "Präposition" so'ziga borib taqaladi. " Lotincha-nemischa " lug'atga murojaat qilsak, "prae" so'zi predlog ma'nosini anglatadi. Bundan tashqari "prae" so'zi nemis tilida *vor* old qo'shimchasiga to'g'ri kelib, bu old qo'shimchadan fe'l va ot yasaladi.

a) Präfix: prae- (lat. )= voran, voraus[1 ,408]

b) Präfix im Verb: praepono (lat. )= voransetzen, stellen, -legen[1 ,412]

c) Präfix im Substantiv: praepositio (lat. )= Voranstellung[1 ,412]

Präposition : prae (lat. )= vor (her) [1 ,412]

Predloglarning so'zma-so'z tarjimasi vo, voran, voransetzen so'zlar bilan bog'liqdir. Bu bog'liqlik *Präposition* so'zining ma'nosini ochib beradi. Vor-Wort ya'ni predloglarning o'rnini, qaysi so'z bilan bog'lanib kelgan bo'lsa o'sha so'zdan oldin kelishiga ishora qiladi [2,159].

Nemis tilida qo'llaniladigan predloglarning ko'pchiligi turli xil so'z turkumlari masalan ravish, ot partiziplar va boshqa chet tillaridan, maxsus tillardan paydo bo'lgan.

**Ravishlardan paydo bo'lgan predloglar. Sifatdosh sifat va otlardan paydo bo'lgan predloglar.**

"Die Duden Grammatik" va "Bünting Eichlers Deutsche Grammatik" kitoblariga murojaat qilsak , birinchi predloglar o'rin ravishlaridan paydo bo'lganligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Bu predloglarga *ab, an, aus, auf, bei, bis, durch, hinter, mit, nach, uber, um, unter, von, vor, zü* kiradi. Bu predloglarni ham predlog sifatida ham ravish sifatida qo'llash mumkin [3,383].

**1) Adverb:** Die Zeitschrift liegt unten im Regal**.**

**2) Präposition:** Sie liegt unter dem Buch.

**3) Adverb:** Der Besen ist hinten im Abstellraum.

**4) Präposition:** Er ist hinter dem Staubsauger.

https://buxdu.uz



Keyinchalik o'rinni ifodalovchi predloglar vaqtni ifodalovchi predloglar o'rnida qo'llanilgan. Vaqtni ifodalovchi predloglarga: *ab, an, auf, aus, bei, bis, gegen, hinter, in, nnerhalb, mit nach, um unter, von, vor, zu va zwischen* kirdi [4,148].

O'rinni va vaqtni ifodalovchi predloglar mantiqan birga qo'llanila oladi. Masalan *vor* predlogi ham vaqtni ham o'rinni ham sababni ifodalay oladi:

5)Mein Auto steht vor <u>dem LKW (lokal)</u>

6)Wir haben vor zwanzig Minuten gegessen (temporal)

7)Ihre Kinder kreischten vor Vergnügen. (kausal=sie kreischten, weil sie vergnügt waren)

**Sifatdoshlar, sifatlar, otlardan paydo bo'lgan predloglar.**

Ayrim predloglar sifatlardan, otlardan, fe'llarning sifatdosh formasidan paydo bo'lgan. Sifatdoshlardan paydo bo'lgan predloglar ikkiga bo'linadi. Sifatdosh I va sifatdosh II dan paydo bo'lgan predloglar.

Sifatdosh I shaklidan paydo bo'lgan predloglarga: *betreffend, entsprechend* kiradi.Sifatdosh II dan paydo bo'lgan predloglarga *angenommen, ungeachtet* kiradi. Ungeachtet predlogi ***un*** inkorni ifodalovchi old qo'shimcha bilan yasalgan. Ayrim sifatdoshlar predloglar bilan qo'llaniladi: *angefangen bei, ausgehend von, beginnend mit* [5,699].

| Partizip + Präposition + Dativ |
|---|
| angefangen bei |
| ausgehend von |
| beginnend mit |
| entfernt von |
| gleichbedeutend mit |
| übereinstimmend mit |

Sifatlardan paydo bo'lgan predloglarning soni ko'p emas. Bu predloglarga *nach (von nahe), nächst, voll frei, gleich, westlich, südlich, ähnlich, fern, lang, unweit* [3,384] kiradi.

Otlardan paydo bo'lgan predloglarga: *dank, krank, trotz, wegen, laut zeit, mangels, betreffs, zwecks*[4,149] kiradi. Bunday predloglar bosh harf bilan emas, balki kichik harflar bilan yo'ziladi.

**Predloglarni innovatsion texnalogiyalar bilan o'rgatish usullari.** O'qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko'rishimiz mumkin;

**Aktiv metod**. Bu metod talaba-yoshlarni dars jarayonida faollashuviga, ma'lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi.

**Passiv metod**. Bu metod dars jarayonida talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo'lishiga olib keladi.

**Interaktiv metod**. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o'qitivchi va talabalarni birgalikdagi faol hatti-harakatlariga asoslanadi.

https://buxdu.uz



Interaktiv ( ingl. Interaction-o‘zaro ta’sir ) metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki,ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

Interaktiv mashg’ulot –o‘qituvchi va o‘quvchilar faol ishtirok etadigan mashg’ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.Interaktiv metodlar o‘zining quyidagi o‘ziga xos jihatlari bilan izohlanadi:

a) Interfaol metodlar o‘qituvchi bilan o‘quvchining faol munosabati,bir-birini to‘liq tushuntirishga asoslanadi.

b) Interfaol metodlarni o‘quv jarayonida joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo‘lmasin ,qayerda o‘tkazilmasin darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorlikda ishlashini natijada o‘zlashtirishlarini ta’minlashi losim.

c) Bunda o‘qituvchi faqat fasilitator ( yo‘l – yo‘riq ko‘rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi ) vazifasini bajaradi.

d) Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib ularda erkin fikrlash,mustaqil qaror qabul qilish ,hissiyotlarni boshqara olish , tanqidiy va ijobiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlaydi.

Quyidagi interaktiv metodlar nemis tilida predlog mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatishda qo‘l keladi:

**O‘ylash, fikrlash, ijro etishga doir interfaol metodlar: (** Rasmlarga qarab mustaqil hikoya tuzish va so‘zlab berish.)

**Vincent van Gogh**



**Van Goghs Zimmer in Arles**

**Wählen Sie die richtige Variante aus:**

1. Wo schlief der Maler Gogh?

a) Er schlief in seinem Zimmer und lag auf dem Bett.

b) Er schlief in seinen Zimmer und lag unter dem Bett.

c) Er schlief in seinem Zimmer und lag auf das Bett.

2. Den kleinste Stuhl stellte Gogh

https://buxdu.uz



a) zwischen das Bett und den Tisch.
b) zwischen dem Bett und den Tisch.
c) zwischen das Bett und den Stuhl.
3. Wohin hing der Maler seine Bekleidung und den Hut?
a) Er hing sie auf die Ablage hinter dem Bett.
b) Er hing sie auf der Ablage unter das Bett.
c) Er hing sie auf die Ablage hinter das Bett.
4. Wo befindet sich im Schlafzimmer der Spiegel?
a) Der Spiegel hängt auf der Wand neben dem Fenster.
B) Der Spiegel hängt an die Wand neben das Fenster.
c) Der Spiegel hängt an der Wand neben dem Fenster.
5. Der blaue Krug, die Flaschen und die Bücher hatte van Gogh
a) auf dem Tisch.
b) auf den Tisch.
c) an dem Tisch.

**Hören Sie die Ballade und ergänzen Sie die passenden Präpositionen:**
am, auf, beim, bis an, im, in, ins, um

**König in Thule(** Johann Wolfgang Goethe )
Es war ein König _____ Thule, Er saß _____ Königsmahle,
Gar treu ____ _____das Grab, Die Ritter _____ ihn her,
Dem sterbend seine Buhle ______ höhem Vätersaale
Einen goldenen Becher gab. Dort ____ dem Schloß ___ Meer.

Es ging ihm nichts darüber, Dort stand der alte Zecher,
Er leert` ihn jeden Schmaus: Trank letzte Lebensglut
Die Augen gingen ihm über, Und warf den heiligen Becher

**“ Monsterspiel ” o‘yini** .

Bu o‘yin orqali o‘quvchilar ko‘rish eshitish, o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, predloglarni kerakli kelishiklarda qo‘llay olishni o‘rganishadi. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi va har bir o‘quvchiga oldindan tayyorlangan rasmlar beriladi. Ana shu rasmlar yo‘rdamida har bir o‘quvchi o‘zining partnyorini topishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilar quyidagi savollarni berib, o‘ziga kerakli bo‘lgan sherigini topadi:

***-Hast du Hände anstatt der Füße?***
***-Hast du einen Kopf im Bauch?***
***-Hast du einen Arm auf dem Rücken?***
***-Haben Sie drei Beine?***
***-Haben Sie ein Auge anstatt des Mundes?***

O‘quvchilar berilgan savollarga “ha “ yoki “yo‘q” deb javob qaytarishi kerak bo‘ladi.

**Wechselpräposition –Rallye o‘yini** .

https://buxdu.uz



Bu o‘yinda 3-4 o‘quvchi ishtirok etishi mumkin. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar dativ va akkusativ kelishigi predloglarini to‘g‘ri qo‘llay olishni organadilar. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi va har bir guruhga o‘yin rejasi hamda kubik beriladi. O‘quvchilar navbat bilan o‘yinni boshlashadi. Masalan, kubik quyidagi gap ustiga tushdi: Im Restaurant: Das Salz steht _____Pfeffer".

O‘quvchi gapni o‘qib kerakli kelishikga qo‘yishi kerak. Agar vazifani bajara olmasa keying o‘quvchi o‘yinni davom ettiradi.

**Scannt die QR -Codes, schreibt und ergänzt die Lücken.**

QR-1---------- QR-2-------- QR-3------- QR-4----- QR-5----- -------QR6

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Langenscheidt Taschenwörterbuch, 1999, S. 408,412.

2.Bünting, Karl-Dieter ; Ader, Dorothea: Grammatik auf einen Blick: Die. deutsche Sprache und ihre Grammatik mit einem Grammatiklexikon Schweiz : Isis Verlagsgesellschaft AG Chur, 1993.

3.Gelhaus, Hermann ; Eisenberg, Peter ; Henne, Helmut ; Sitta, Horst ; Wellmann, Hans ; (Bearbeitung): Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. neu bearbeitete Auflage. Mannheim, Leipzig, Wien, Zürich : Dudenverlag, 1998

4. Bünting, Karl-Dieter ; Eichler, Wolfgang: Deutsche Grammatik: Form, Leistung und Gebrauch der Gegenwartssprache. 6. Auflage. Weinheim : Beltz Athenäum Verlag, 1996

5.Engel, Ulrich: Deutsche Grammatik. 3, korrigierte Auflage. Heidelberg : Julius Groos Verlag, 1996

6.Klaus, Cäcilia: Grammatik der Präpositionen. Frankfurt am Main, Berlin, Bern, Bruxelles, New York, Wien : Peter Lang Verlag, 1999

7.di Meola, Claudio: Die Grammatikalisierung deutscher Präpositionen. Tübingen : Stauffenberg Verlag, 2000

8.Schilling, H. ; Hentzschel, D. ; Döring, H. ; Kühn, R. ; Ludewig, W. ; Ludwig, W.; Schinke, W. ; Schmid, W.: Die deutsche Sprache. Leipzig : Fachbuchverlag, 1954

9.Wellmann: Deutsche Grammatik. Laut. Wort. Satz. Text, Universitätsverlag Winter, (2008)

10. Schulz, D., Griesbach, H.: Grammatik der deutschen Sprache. Max Hueber Verlag. 1996